

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARINING KASBIY FAOLIYATIDA PSIXOLOGIK BILIMLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy faoliyatida psixologik bilimlardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil etiladi. Jinoyatchilikning murakkablashuvi, jinoyatning subyektiv tomonlari — motiv va maqsadlarning xilma-xilligi hamda jinoyat sodir etilish shart-sharoitlarining kengayib borishi sharoitida huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining psixologik tayyorgarligi muhim kasbiy omil sifatida asoslanadi. Shuningdek, psixologik bilimlarni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari va samarali mexanizmlari yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: ichki ishlar organlari, kasbiy faoliyat, psixologik bilimlar, jinoyat, psixologik tayyorgarlik.

ЗНАЧЕНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СОТРУДНИКОВ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ И ПУТИ ИХ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ

Аннотация. В данной научной статье анализируются теоретические и практические аспекты использования психологических знаний в профессиональной деятельности сотрудников органов внутренних дел. В условиях усложнения преступности, многообразия субъективных сторон преступления — мотивов и целей, а также расширения условий совершения преступления психологическая подготовка сотрудников правоохранительных органов оправдывается как важный профессиональный фактор. Также будут освещены приоритеты и эффективные механизмы совершенствования психологических знаний.

Ключевые слова: органы внутренних дел, профессиональная деятельность, психологические знания, преступность, психологическая подготовка.

THE IMPORTANCE OF USING PSYCHOLOGICAL KNOWLEDGE IN THE PROFESSIONAL ACTIVITIES OF INTERNAL AFFAIRS OFFICERS AND WAYS TO IMPROVE IT

Annotation. This scientific article analyzes the theoretical and practical aspects of the use of psychological knowledge in the professional activities of employees of internal affairs bodies. In the context of the complication of crime, the subjective sides of the crime — the variety of motives and goals, and the widening conditions for the commission of a crime, the psychological training of law enforcement officers is justified as an important professional factor. Also, priorities and effective mechanisms for improving psychological knowledge are highlighted.

Keywords: internal affairs bodies, professional activity, psychological knowledge, crime, psychological training.

KIRISH. Hozirgi globallashuv va ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi sharoitida jinoyatchilikning sodir etilish shakllari, usullari hamda uning subyektiv tomoniga xos bo'lgan motiv va maqsadlar tobora murakkablashib bormoqda. Jinoyat sodir etilishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarning kengayishi huquqni muhofaza qilish tizimi oldiga yangi va

murakkab vazifalarni qo'ymoqda. Mazkur holat ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy faoliyatida psixologik bilimlardan samarali foydalanish masalasini dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida namoyon etadi. O'zbekiston Respublikasida ichki ishlar organlari faoliyatini zamon talablari darajasida tashkil etish, ularning xizmat samaradorligini oshirish hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish masalalariga davlat siyosati darajasida alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-apreldagi "Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5005-son Farmonida ichki ishlar organlari faoliyatini tubdan isloh qilish, kadrlar salohiyatini oshirish va ularning kasbiy tayyorgarligini kuchaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Mazkur Farmonda ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy bilim va malakasini oshirish bilan bir qatorda, ularning ma'naviy-ruhiy tayyorgarligi, shaxsiy mas'uliyati va fuqarolar bilan muloqot madaniyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilishi belgilab berilgan. Bu esa ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy faoliyatida psixologik bilim va ko'nikmalarning muhim o'rin tutishini yana bir bor tasdiqlaydi. Ayniqsa, jinoyatlarni oldini olish, ularni aniqlash va fosh etish jarayonida shaxs psixologiyasini chuqur o'rganish, jinoyatning subyektiv tomonini tashkil etuvchi motiv va maqsadlarni tahlil qilish, shuningdek, murakkab va ziddiyatli vaziyatlarda to'g'ri psixologik yondashuvni qo'llash ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy faoliyati samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy faoliyatida psixologik bilimlardan foydalanishning ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslash hamda ushbu yo'nalishni takomillashtirish yo'llarini aniqlash bugungi kunda dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI. Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy faoliyatida psixologik bilimlardan foydalanish, ularni kasbiy va ruhiy jihatdan tayyorlash masalalari psixologiya va huquqshunoslik fanlari tutashgan muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur muammo xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan turli jihatlarida o'rganilgan bo'lib, tadqiqotlarda ichki ishlar organlari xodimlari kasbiy faoliyatining psixologik asoslari yetakchi o'rin egallaydi. Xususan, xorijiy olimlar E.A.Klimov, E.S.Romanova, V.V.Chufarovskiy, M.I.Enikeev, A.M.Stolyarenko va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida kasbiy faoliyat psixologiyasi, shaxs va faoliyat o'zaro birligi tamoyili asosida yoritilgan. Ularning tadqiqotlarida ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatini tashkil etishda psixologik tayyorgarlik, kasbiy yo'naltirilganlik, shaxsning individual-psixologik xususiyatlari va motivatsion omillarning ahamiyati fundamental kategoriya sifatida talqin etilgan. Mazkur yo'nalish O'zbekistonlik olimlar tomonidan ham izchil ravishda o'rganilgan. Jumladan, V.Karimov, A.A.Matchanov, R.M.Mahmudov, E.Yu.Agzamova va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida ichki ishlar organlari xodimlari kasbiy faoliyatini boshqarishda muhim ahamiyat kasb etuvchi shaxs tuzilmalari, ularning ontogenezi, tarkibi, funksiyalari, shakllanish qonuniyatlari, huquqiy madaniyati hamda kasbiy rivojlanish omillari tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotlar ichki ishlar organlari xodimlari shaxsining kasbiy shakllanish jarayonida psixologik bilimlarning muhim rolini asoslab beradi. Shu bilan birga, mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, e'lon qilingan ishlarda ichki ishlar organlari faoliyatining ayrim jihatlari yoritilgan bo'lib, mazkur tizim faoliyatining barcha yo'nalishlari, ayniqsa tezkor-qidiruv faoliyatining psixologik jihatlari yetarli darajada kompleks o'rganilmagan. Xorijiy olimlar tomonidan ichki ishlar organlari faoliyatining huquqiy-psixologik jihatlari nisbatan ko'proq e'tibor qaratilgan. Jumladan, A.M.Stolyarenko ichki ishlar organlari xodimlarini psixologik tayyorlash masalalarini ilmiy asosda tadqiq etgan bo'lsa, O.V.Xludova ekstremal vaziyatlarda ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy sifatlarini rivojlantirish muammosini o'rgangan. E.A.Vasilenko esa bo'lajak ichki ishlar organlari xodimlarida ekstremal vaziyatlarga nisbatan psixologik barqarorlikni shakllantirish masalasiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Mazkur muammo O'zbekistonlik olimlar tomonidan ham muayyan jihatlarida yoritilgan. Xususan, G.A.Normurodov gumon qilinayotgan voyaga yetmagan shaxslarni so'roq qilishning psixologik xususiyatlarini, I.X.Arifxodjaeva ichki ishlar

organlari serjantlar tarkibi faoliyatini takomillashtirish omillarini, V.G.Shchepotkin tergov faoliyatida qonuniylikni mustahkamlashning psixologik jihatlarini, E.Yu.Agzamova esa ichki ishlar organlari xodimlari shaxsining individual-psixologik xususiyatlarini belgilovchi omillarni ilmiy jihatdan asoslab bergan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. *Ichki ishlar organlari xodimining kasbiy faoliyati murakkab va serqirra bo'lib, u turli funksional vazifalarni bajarishda xodimning psixologik xususiyatlari va tarkibiy elementlarini talab qiladi. Tezkor-qidiruv faoliyati xodimdan yuqori darajadagi kasbiy-psixologik tayyorgarlikni, hissiy-irodaviy barqarorlikni, murakkab va ekstremal vaziyatlarda oqilona qaror qabul qilishni, shuningdek, tezkor va samarali harakat qilish qobiliyatini talab etadi. Kasbiy-psixologik tayyorgarlik elementlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: shaxsiy-kasbiy xislatlarning kasbiy yo'nalganligi, psixologik barqarorlik, rivojlangan iradaviy xislatlar, ya'ni murakkab vaziyatlarda o'zini tutish, jasurlik, oqilona tavakkal qilish qobiliyati; rivojlangan kommunikativ xislatlar, jumladan, turli toifadagi fuqarolar bilan tez va ishonchli aloqaga kirishish, shuningdek, profilaktik ishlarni amalga oshirishda psixologik ta'sir ko'rsatish qobiliyati; bilish xislatlari, ya'ni kuzatuvchanlik, diqqatlilik, tezkor xotira, mantiqiy tafakkur, ijodiy tasavvur, farosat va rivojlangan intuitsiya; shuningdek, ziyraklik va murakkab vaziyatlardan chiqish qobiliyati xodimning samarali faoliyatini ta'minlaydi. Mazkur xislatlarning yetishmasligi yoki yetarlicha rivojlanmaganligi xodimning funksional vazifalarini to'g'ri bajarish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, xizmatda xatoliklarga yo'l qo'yilishiga, kasbiy moslashuv muammolariga va stressli vaziyatlarda noto'g'ri qaror qabul qilish xavfini oshiradi. Shu bois, ichki ishlar organlari tezkor-qidiruv xodimlarini psixologik tayyorlash xodimning kasbiy barqarorligi va xizmat samaradorligini ta'minlashning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xodimning ruhiy-irodaviy holatini boshqarish ko'nikmalari, ekstremal va nostandart vaziyatlarda oqilona qaror qabul qilish, yuqori ishchanlik va tavakkalchilik bilan harakat qilish qobiliyati xizmat samaradorligini belgilovchi eng muhim psixologik omillardan biridir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, amaliy mashg'ulotlar va maxsus psixologik treninglar yordamida xodimning kasbiy-psixologik xislatlarini samarali rivojlantirish mumkin.*

TAHLIL VA NATIJALAR. *Ichki ishlar organlari xodimlarida shakllantirilishi zarur bo'lgan kasbiy-psixologik xislatlar va ko'nikmalar: turli toifadagi fuqarolar bilan ishonchli psixologik aloqani o'rnatish va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish; ekstremal vaziyatlarda turli rollarga moslashish va samarali harakat qilish qobiliyati; nizoli vaziyatlarda psixologik-pedagogik ta'sir ko'rsatish usullarini qo'llash; nostandart vaziyatlarda o'zini tutish va psixologik barqarorlikni saqlash; hissiy-irodaviy xislatlarni rivojlantirish; ruhiy-emotsional barqarorlik va irodaviy harakat ko'nikmalarini shakllantirish; xizmatdagi ruhiy zoriqishlarni oldini olish va ularni boshqarish qobiliyati. Ushbu xislatlarni shakllantirishda bilish xislatlari mashqlari, kommunikativ treninglar, rollarga kirish mashqlari, psixologik boshqaruv mashqlari va psixotexnik o'yinlar samarali vosita sifatida qo'llaniladi. Bilish xislatlari mashqlari kuzatuvchanlik, tezkor xotira, mantiqiy tafakkur va idrok qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan bo'lsa, kommunikativ treninglar turli toifadagi fuqarolar bilan ishonchli munosabat o'rnatish va psixologik ta'sir ko'rsatish ko'nikmalarini egallashga qaratiladi. Rollarga kirish mashqlari vaziyatga mos ravishda verbal va noverbal vositalardan foydalanish qobiliyatini shakllantiradi. Psixologik boshqaruv mashqlari hissiy-irodaviy holatlarni boshqarish, ruhiy zoriqishlarni bartaraf etish va ijobiy kayfiyat yaratish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Psixotexnik o'yinlar esa o'yin shaklida xatti-harakatlarni bajarish orqali kasbiy xislat va ko'nikmalarni samarali shakllantirishga xizmat qiladi. Kasbiy psixologik treninglarni tashkil etishning asosiy tamoyillari ilmiy asoslanganlik va maqsadga muvofiqlik, kasbiy yo'nalganlik, muntazamlik va ketma-ketlik, ta'lim oluvchilarning faolligi va ongli ishtiroki hamda tayyorlov jarayonining barcha ishtirokchilar uchun qulayligini o'z ichiga oladi. Shu bois, hissiy-irodaviy barqarorlik tezkor-xodimning kasbiy faoliyatga psixologik tayyorligini ko'rsatuvchi asosiy omil bo'lib, murakkab va ekstremal vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish va xizmat samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.*

XULOSA. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy faoliyatida psixologik bilimlardan samarali foydalanish xizmat samaradorligini oshirish, murakkab va ekstremal vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish hamda xodimlarning hissiy-irodaviy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Tezkor-qidiruv xodimlarida shakllantirilishi zarur bo'lgan kasbiy-psixologik xislatlar – shaxsiy-kasbiy yo'nalganlik, psixologik barqarorlik, rivojlangan iradaviy va kommunikativ xislatlar, bilish qobiliyatlari va ziyraklik – xizmat jarayonida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatish uchun asosiy omil sifatida belgilandi. Shuningdek, tadqiqot ko'rsatdiki, amaliy mashg'ulotlar, maxsus psixologik treninglar va psixotexnik o'yinlar yordamida xodimlarning kasbiy-psixologik ko'nikmalarini samarali rivojlantirish mumkin. Bu esa xodimlarning murakkab vaziyatlarda oqilona harakat qilish, stressni boshqarish va nizoli vaziyatlarda psixologik ta'sir ko'rsatish qobiliyatlarini oshirishga imkon yaratadi. Natijalar shuni tasdiqladiki, ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash va malakasini oshirish tizimida psixologik tayyorgarlikning ahamiyati yuqori bo'lib, u xizmat samaradorligini oshirish, xodimlarning professional moslashuvini ta'minlash va jamoat xavfsizligini samarali himoya qilishda asosiy yo'nalish sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-aprelda qabul qilingan PF-5005-sonli *"Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"* Farmoni.
2. Stolyarenko A.M. *Psixologicheskaya podgotovka sotrudnikov organov vnutrennikh del*. M.: 1988. – 245 s.
3. Hludova O.V. *Razvitie professionalnykh kachestv sotrudnikov OVD v ekstremalnykh situatsiyakh*. Dissertatsiya kand. psikholog. nauk. Tambov, 2004. – 165 s.
4. Vasilenko E.A. *Formirovanie psixologicheskoy ustoychivosti budushchikh sotrudnikov OVD k ekstremalnym situatsiyam*. Dissertatsiya kand. psikholog. nauk. Stavropol, 2008. – 229 s.
5. Dushanov R.X. *Tezkor-qidiruv faoliyati psixologiyasi*. Darslik. IIV Akademiyasi. Toshkent, 2016. – 580 b.
6. Normurodov G.A. *Vaziyatli psixologik xususiyatlar va voya etmagan shaxslarni so'roq qilish metodikasi*. Toshkent, 2015.
7. Arifhodjaeva I.X. *Ichki ishlar organlari serjantlari faoliyatini takomillashtirish omillari*. Toshkent, 2017.
8. Shchepotkin V.G. *Tergov faoliyatida qonuniylikni mustahkamlashning psixologik jihatlari*. Moskva, 2014.
9. Agzamova E.Yu. *Ichki ishlar organlari xodimlarining individual-psixologik xususiyatlari*. Toshkent, 2016.
10. Skalin Yu.E. *Tezkor hodimlarni jinoyat qidiruv sohasiga kasbiy psixologik tanlash*. Moskva, 2009.
11. Mahmudov R.M. *Shaxsning huquqiy-ijtimoiylashuvining nazariyasi va amaliyoti*. Toshkent, 2015.
12. Matchanov A.A. *Jinoyat sodir etgan shaxslar qidiruvini takomillashtirishning jinoyat-protsessual va kriminologik jihatlari*. Toshkent, 2016.